



BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARING KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISHDA TURLI USULLARDAN FOYDALANISH

Xusanova Guliruxsor To'liqin qizi
FarDU, Boshlang'ich ta'lim uslubiyoti kafedrası o'qituvchisi, PhD
gulruxsorsusanova@gmail.com
Aliyeva Muxlisa Boxodir qizi
muxlisanazirjonova2705@gmail.com
FarDU 1-bosqich magistranti

***Annotatsiya.** Ushbu tezisdá boshlang'ich sinf o'quvchilarining og'zaki nutqni rivojlantirish va kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishdagi turli metod va usullar haqida ma'lumot berilgan.*

***Kalit so'zlar:** kompetensiya, kommunikativ yondashuv, metodlar, muloqot madaniyati, innovatsion texnologiyalar, nutq madaniyati, nutqiy faollik.*

***Аннотация.** В данном тезисе представлена информация о различных методах и приемах развития устной речи и формирования коммуникативной компетенции учащихся начальных классов.*

***Ключевые слова:** компетенция, коммуникативный подход, методы, культура общения, инновационные технологии, культура речи, речевая активность.*

***Abstract.** This thesis provides information on various methods and techniques for the development of oral speech and the formation of communicative competence of primary school students.*

***Key words:** competence, communicative approach, methods, communication culture, innovative technologies, speech culture, speech activity.*

So'nggi yillarda mamlakatimizda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, o'quvchilarning mustaqil fikrlashi va muloqot madaniyatini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmonlari hamda "Yangi O'zbekiston - maktabdan boshlanadi" tamoyili boshlang'ich ta'lim sifatini oshirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilab berdi. Bu islohotlarning markazida o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish, ya'ni o'z fikrini aniq, lo'nda va mantiqan ifoda etish, tengdoshlari hamda kattalar bilan samarali muloqotga kirisha olish ko'nikmalarini rivojlantirish masalasi turadi. Shu bois, boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish bugungi ta'lim tizimida dolzarb va amaliy ahamiyatga ega masalalardan biri hisoblanadi.

Bugungi kunga qadar "kommunikativ kompetensiya" tushunchasiga bir qancha chet el va mahalliy pedagoglar tomonidan turlicha ta'riflar berilgan. Rus pedagogi S.A.Gilmanova o'zining ilmiy faoliyatida nolingvistik fakulteti talabalarining chet tilidan kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishning

pedagogik shartlarini tahlil qilgan va ko‘plab ta‘riflarni keltirgan. Pedagogika fanlari nomzodi E.I. Litnevskaya “kommunikativ kompetensiya” atamasiga “nutq faoliyatining barcha turlarini hamda og‘zaki va yozma nutq madaniyati elementlarini, ma‘lum bir yosh uchun hayotiy ahamiyatga ega bo‘lgan muloqot sohalari va vaziyatlarida tildan foydalanishning asosiy ko‘nikmalari va malakalarini egallash” deb ta‘rif beradi. M.R. Lvovning ta‘kidlashicha, “Kommunikativ kompetensiya – til (ona tili va ona tili bo‘lmagan), uning fonetik xususiyatlari, leksik va grammatik birliklari, stilistikasi, nutq madaniyati, ushbu til vositalariga ega bo‘lish va nutq faoliyati turlarini- nutqni bilishni bildiruvchi tushunchadir. U kommunikativ kompetensiyaga tabiiy nutq faoliyati natijasida va maxsus tayyorgarlik natijasida erishiladi - deb ta‘kidlaydi.¹

Umumiy qilib olganda, kommunikativ kompetensiya – bu o‘quvchilarning o‘zgarar nutqini tushunishi, o‘zining og‘zaki va yozma, ichki va tashqi nutqiga ega bo‘lishi, nutq vaziyatiga mos bo‘lgan fikrlarni ayta olishi, turli xil nutqiy vaziyatlardan chiqib keta olish uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmaga ega bo‘lishi. O‘quvchilarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirish uchun o‘qituvchi quyidagi yondashuvlardan foydalanishi zarur:

Interfaol metodlar va innovatsion texnologiyalar

“Dialogik o‘qitish metodi” — o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasida savol-javob, fikr almashish orqali faol muloqot shakllanadi. “Think–Pair–Share” (O‘yla–Juftlash–Bo‘lish) — o‘quvchilar avval yakka o‘ylaydi, keyin juftlikda fikr almashadi, so‘ng butun sinf bilan baham ko‘radi. Bu usul ijtimoiy muloqotni kuchaytiradi. “Rol o‘ynash (Role Play) — turli hayotiy vaziyatlar asosida o‘quvchilar “do‘konchi va xaridor”, “o‘qituvchi va o‘quvchi” kabi rollarni ijro etadi. Bu ularning so‘z boyligini va ishonch bilan gapirish qobiliyatini oshiradi. “Fishbone (Sabab–natija tahlili) metodi – o‘quvchilar muammoni tahlil qilib, o‘z fikrini mantiqan asoslaydi.

O‘yinlar orqali kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish

“Kim tez topadi?” – o‘qituvchi so‘z yoki rasm ko‘rsatadi, o‘quvchi esa uni to‘g‘ri so‘z bilan ifodalaydi. “Zanjirli hikoya” – har bir o‘quvchi bittadan gap aytadi, keyingisi uni davom ettiradi. Natijada jamoaviy hikoya hosil bo‘ladi. “Mening fikrimcha...” o‘yini – muayyan mavzu (masalan, “maktabdagi eng yoqimli narsa”) haqida har bir o‘quvchi o‘z fikrini bildiradi. “Rasm asosida suhbat” – tasvirga qarab savol-javob tashkil qilinadi, bu o‘quvchilarning tahliliy va tasviriy nutqini rivojlantiradi. Bundan tashqari, o‘quvchilarning oilaviy muhitda muloqot madaniyatini shakllantirish, o‘qituvchi va ota-onalar hamkorligida doimiy muloqot mashg‘ulotlarini tashkil etish ham muhim o‘rin tutadi.

Shunday qilib, boshlang‘ich ta‘limda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish o‘quvchi shaxsini har tomonlama kamol toptirish, uning nutqiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanishini ta‘minlashning asosiy omillaridan biridir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kommunikativ kompetensiyani

1. ¹ Гильманова С.А. Педагогические условия развития иноязычной коммуникативной компетенции студентов неязыковых факультетов. Диссертация на соискание академической степени магистра. – Челябинск, 2019. 147 с.

shakllantirish ta’lim jarayonida o’qituvchining metodik mahoratiga, interfaol dars tashkil etish qobiliyatiga va o’quvchi shaxsiga individual yondashuvga bevosita bog’liqdir. Bu yo’nalishda samarali ishlash kelajakda mustaqil fikrlaydigan, ijtimoiy faol va madaniyatli shaxslarni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida” 29.04.2019 yildagi PF-5712-son.
2. Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi . Toshkent: O‘zbekiston, 2022. -416bet
3. Гильманова С.А. Педагогические условия развития иноязычной коммуникативной компетенции студентов неязыковых факультетов. Диссертация на соискание академической степени магистра. –Челябинск, 2019. 147-с
4. Gulomov.A. Boshlang’ich sinfdagi kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish metodlari. Toshkent: Fan va texnologiya, 2020-yil